



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MODERNIZM TURKIY MATBUOT VA ADABIYOTDA: “MUSHTUM” VA “MULLA NASRIDDIN” JURNALLARI MISOLIDA

Fazilat Muhammadiyeva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Tayanch
doktorant.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada turkiy xalqlarning adabiy va matbuot merosida modernizm g‘oyalarining shakllanishi va rivojlanishida satirik nashrlarning o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Xususan, XX asr boshlarida faoliyat yuritgan “Mushtum” (O‘zbekiston) va “Mulla Nasriddin” (Ozarbayjon) jurnallari orqali G‘arb adabiyoti hamda tanqidiy tafakkurning turkiy xalqlar ongiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Bu nashrlar vositasida modern adabiyotga xos bo‘lgan ijtimoiy tanqid, islohot g‘oyalari, erkinlik va adolat, zamonaviylik va ilm-fan kabi mavzular keng ommaga yetkazilgan. Mazkur nashrlarning turkiy adabiyotda G‘arb ta’siri bilan yuzaga kelgan yangilanish jarayonining ijtimoiy-madaniy zaminini yoritishda qanday vosita bo‘lgani ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rsatib berilgan. Turk matbuoti bilan adabiyoti o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ochib berilar ekan, tarixiy kontekstda modernizm va fikriy uyg‘onishning taraqqiyotdagi o‘rni ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: turk adabiyoti, matbuot, *Mushtum*, *Molla Nasriddin*, modernizm, ijtimoiy tanqid, G‘arb ta’siri, satira, madaniy uyg‘onish, XX asr boshlaridagi turkiy matbuot.

МОДЕРНИЗМ В ТЮРКСКОЙ ПЕЧАТИ И ЛИТЕРАТУРЕ: НА ПРИМЕРЕ ЖУРНАЛОВ «MUSHTUM» И «MOLLA NASRADDIN»

Фазилат Мухаммадиева

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени
Алишера Навои, базовый докторант

Аннотация.

В данной статье анализируются роль и значение сатирических изданий в формировании и развитии идей модернизма в литературном и печатном наследии тюркских народов. В частности, на примере журналов «*Mushtum*» (Узбекистан) и «*Molla Nasraddin*» (Азербайджан), активно издававшихся в начале XX века, рассматривается влияние западной литературы и критического мышления на сознание тюркских народов. Посредством этих изданий до широкой аудитории были донесены такие характерные для современной литературы темы, как социальная критика, идеи реформ, свобода и справедливость, современность и наука. С научной точки зрения показано, каким образом данные издания стали важным средством освещения социокультурной основы процессов обновления, возникших в тюркской литературе под влиянием Запада. Раскрывая взаимосвязь между тюркской печатью и литературой, автор также анализирует роль модернизма и интеллектуального пробуждения в историческом контексте общественного развития.

Ключевые слова: тюркская литература, печать, *Mushtum*, *Molla Nasraddin*, модернизм, социальная критика, влияние Запада, сатира, культурное пробуждение, тюркская печать начала XX века.

MODERNISM IN TURKIC PRESS AND LITERATURE: THE CASE OF “MUSHTUM” AND “MOLLA NASREDDIN” JOURNALS

Fazilat Muhammadiyeva

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Doctoral
Researcher

Abstract.

This article analyzes the role and significance of satirical publications in the formation and development of modernist ideas within the literary and press heritage of Turkic peoples. In particular, it examines the influence of Western literature and critical thought on the intellectual life of Turkic societies through the journals *Mushtum* (Uzbekistan) and *Molla Nasreddin* (Azerbaijan), which were active in the early 20th century. These publications conveyed to the broader public themes associated with modern literature, such as social critique, reformist ideas, freedom and justice, modernity, and science. This study demonstrates how these journals served as a medium for highlighting the socio-cultural foundations of renewal in Turkic literature under the influence of the West. While revealing the interrelationship between the Turkic press and literature, the article also analyzes the role of modernism and intellectual awakening in the historical development of Turkic societies.

Keywords: Turkic literature, press history, *Mushtum*, *Molla Nasreddin*, modernism, social critique, Western influence, satire, cultural renaissance, early 20th-century Turkic press.

Kirish

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqeliklar musulmon xalqlari hayotida yangi uyg'onish davrini boshlab berdi. Rossiya imperiyasi davrida turkiy xalqlar orasida ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish harakatlari keskin kuchayib, bu jarayonlarning markazida maktab, teatr, matbuot va ayniqsa, satirik jurnallar alohida o'rin tutdi.

Shu davrda Ozarbayjonda nashr etilgan "Mulla Nasriddin" va O'zbekistonda chop etilgan "Mushtum" jurnallari ijtimoiy fikr shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu nashrlar o'tkir, tanqidiy va satirik uslublari orqali xalqni zamonaviy dunyoqarashga chorlab, G'arbdagi ilg'or ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni keng ommaga yetkazishga intildi.

Bu jurnallar, asosan, diniy fanatizm, jaholat, ayollarning ijtimoiy hayotdan chetlashtirilishi, siyosiy zulm va adolatsizlik kabi illatlarni keskin tanqid ostiga oldi. Shu bilan birga, ular G'arb mamlakatlaridagi ilm-fan taraqqiyoti, ayollar huquqlari, maktab ta'limi, fuqarolik erkinliklari, demokratiya va qonun ustuvorligi kabi tamoyillarni o'lka hayotiga keng targ'ib qildilar. Negaki Fitrat aytganiday, mamlakatlar orasida Turkiston kabi baxtsiz bir mamlakat yo'q edi.

Toshkent shahrida faoliyat yuritgan "Mushtum" jurnali Abdulla Qodiriy va G'ozir Yunus tashabbusi bilan yaratilgan satirik nashr bo'lib, 1923-yil 18-fevraldan boshlab chop etila boshlagan. Jurnalning ilk soni 1923-yil 18-fevral kuni "Turkiston" gazetasiga qo'shimcha tarzda uch ming nusxada nashr etilgan bo'lsa, 1924-yildan boshlab "Qizil O'zbekiston" gazetasining nashri sifatida e'lon qilina boshlagan. Keyinchalik mustaqil jurnal sifatida o'z faoliyatini davom ettirdi.

Jurnal sahifalarida xalqni qoloqlikdan taraqqiyotga olib chiqish va ma'rifatli qilish, diniy xurofotlarga barham berish, ayollarning jamiyatdagi ishtirokini faollashtirishga doir turfa maqola, feleton, ocherk va hikoyalar muntazam e'lon qilib borilgan. "Mushtum" jurnalida turli davrlarda Abdulla Qodiriy, G'ozir Yunus, Cho'lpon, Hoji Muin, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, G'ayratiy, Sobir Abdulla kabi ko'plab ijodkorlar o'z asarlari bilan qatnashganlar. Jurnalda e'lon qilingan hajviy asarlarning aksariyati o'zbek adabiyotining nodir namunalariga aylangan. Masalan, G'afur G'ulomning "Shum bola" asari, Abdulla Qahhor va Said Ahmadning eng sara hajviyalari, Erkin Vohidovning "Donishqishloq hangomalari" bunga yorqin misoldir. Abdulla Qodiriy ijodining ilk davrida yozilgan "Baxtsiz kuyov" dramasi ham shular jumlasidan.

Turkiston maishiy hayotidan olib yozilgan ushbu asarda dabdabali to'ylar, ortiqcha xarajatlar va ularning salbiy oqibatlari haqida bayon qilinadi; maishiy hayotdagi illatlardan biri – isrofgarchiliklar, qiz uchun noo'rin va katta miqdorda qalinlar belgilanishi hamda islom shariatiga

amal qilinmasligi oqibatida bir oilaning inqirozga yuz tutishi tasvirlanadi. Asarda muallif “shariati mustafoga bo’yunsuninglar, endi ko’zlaringizni ochinglar. Bid’at to’yga isrof bo’ladurgan oqchaga o’g’lingizlarni o’qutdinglar yoki jamiyati xayriyaga iona qilinglar. O’g’ul o’qutmoq yaxshi ham farzdur, to’yga isrof qilmog’ bid’atdur” (Karimov, 2022, s. 21), deb aytadi. Abdulla Qodiriyning ushbu fikrlaridan ham bilish mumkinki, o’sha davrda ilm qadrlanmagan, johillik avj olgan va keraksiz urf-odatlar, bid’atlar keng tarqalgan. Qodiriy halokatga olib kelishi mumkin bo’lgan bunday bid’at va zararli amallardan o’z qalami bilan xalqni qaytaradi.

1906-yilda Ozarbayjonda tashkil etilgan “Mulla Nasriddin” jurnali ham “Mushtum” jurnali kabi satira vositasida siyosiy voqea-hodisalarni faol yoritgan, ayollar huquqlarini himoya qilish yo’lida kurash olib borgan hamda Islom Sharqida g’arb ta’sirining kengayishida jonbozlik ko’rsatgan.

Jurnal asoschisi va bosh muharriri, taniqli jurnalist va publitsist Jalil Mammadqulizoda bu nashrni shunchaki jurnal emas, balki zamonning o’zi yaratgan ijtimoiy zarurat mahsuli ekanligini ta’kidlagan. Uning fikricha, satira – bu xalqning ichki dardi, iztirobini ochiq va keskin shaklda ifodalovchi kuchli quroldir. Shu boisdan ham mazkur nashrlar faqat kulgi yoki tanqid vositasi bo’lib qolmay, balki ijtimoiy uyg’onish, madaniy yangilanish va siyosiy o’zgarishlar sari da’vat etuvchi madaniy hodisaga aylandi.

O’sha davrning mashhur adiblaridan biri Abdurahimbek Ahverdiyev o’z xotiralarida jurnal muqovasida “Sharqning uyg’onayotgan xalqlari” tasvirlangan ilk soni haqiqiy “bomba” bo’lgani haqida yozadi. Uning ta’kidlashicha, mullalar “musulmon xonadonida bunday jurnalga o’rin yo’q” deya qarshi chiqishgan. Hatto agar uyda ushbu jurnal topilsa, uni axlatxonaga tashlash kerakligini aytgan. Keskin tanqidlarga qaramay millat fidoyilari ortga qaytmadi, jasorat bilan millat uyg’otishga kirishishdi.

“Mulla Nasriddin” jurnalida chop etilgan materiallar oddiy va o’quvchiga tushunarli tarzda yozilgan, karikaturalari ham aniq va ravshan mazmun bera olardi. Asarda, asosan, diniy ulamolar tanqid ostiga olingan bo’lib, “Mulla Nasriddin” ularni ta’lim hamda dunyoviy taraqqiyotga qarshi kuch sifatida ko’rsatgan. Unda ayollar jamiyat va oilada huquqsiz, erkaklari tomonidan zulm ostida qolgan ojizlar sifatida tasvirlangan. Ayniqsa, jamiyatdagi qizlarning ta’lim olishidagi cheklovlari keskin tanqid qilingan. Xususan, ushbu jurnalda chop etilgan maqolada shunday deyiladi: “Ko’p joylarda musulmon qizlarni 12 yoshida turmushga berishgan. Ko’pincha qiz juda yosh ediki, bola uni qo’lida uyiga olib bordi. Bu qonun faqat musulmonlar orasida, faqat musulmon huquqida mavjud. Bu ajdodlardan qolgan odat. Men musulmonlardan boshqa hech kimda bunday qonun, odat yo’q deyman... Qiz qachon maktabga boradi...” (Mulla Nasriddin, 1924, 6-bet). Ushbu maqolada qizlarning juda erta yoshda turmushga berilishi ularning tabiiy huquqlari, xususan, ta’lim olish imkoniyatini to’sib qo’yayotgani ko’rsatib o’tilgan. Muallif bu odatni boshqa xalqlarda uchramasligini ta’kidlab, uni ijtimoiy taraqqiyotga to’sqinlik qiluvchi illat sifatida baholaydi. “Qiz qachon maktabga boradi?” degan ritorik savol orqali jamiyatdagi ayanchli muammolarga ko’zgu tutadi. Bu tanqid o’quvchilarni o’ylashga va qizlarni maktabga berishga da’vat etuvchi modernistik chaqiriq sifatida jaranglaydi. Shu tariqa jurnal o’z davrida ayollar huquqi va ta’lim masalasida yangilanish g’oyalarini keng targ’ib qilgan. Jurnal muharriri J.Mammadquluzoda jurnal sahifalarida shunday deb yozadi: “Qizlarimiz bilimli bo’lsa, o’z qadr-qimmatini bilsa, o’zini qanday tutishni bilsa edi...” (Mulla Nasriddin, 1907, 3-bet). Bu orqali u ayollarni ta’lim olishga, jamiyatda ijtimoiy faollik ko’rsatishga va oilada teng huquqli sherik bo’lishga da’vat qilgan. Bu kabi g’oyalar ko’plab konservativ doiralar tomonidan qattiq tanqid qilingan bo’lsa-da, matbuot bu mavzuda ayollar va bolalarning huquqlarini himoya qilishdan to’xtamadi.

Xuddi shu mazmundagi maqola “Mushtum” jurnalida ham chop etilgan. “Yeng uchidagi savod” nomli maqolada shunday fikrlar keltirilgan: “Chiroqchi rayon Cheyal qishloq sho’rasiga qarashli Annaruz qishlaqli Er qul o’g’li 10 yashar Fatima namli qizni shu qishlaqli Parda deganga nihayat 1000 so’m pul, 5 bosh qo’y, bitta tuya badalida bechiqim qilib pulladi. To’y bordi-keldisi hal bo’lg’ancha qishlaq sho’rasi bilan xatin-qizlar vakilasining bilmay qalishi, bilmagan kishi bo’lib

turishidan-ku emas, bexabar qilishdan edi deyishdilar” (Mushtum, 1931, 13-oktabr). Maqolada qizlarning pul va mol-dunyo evaziga erta nikohga berilishi, bu jarayonda mahalliy hokimiyat va xotin-qizlar tashkilotlarining befarqligi tanqid qilinadi. Muallif ushbu voqea orqali o’sha davrdagi savodsizlik, jaholat va ijtimoiy adolatsizlikning oqibatlarini ochib beradi. Bu esa jurnalning asosiy maqsadi xalqni ogohlikka chaqirish va jamiyatni illatlardan tozalash vazifasiga xizmat qilgan.

“Mulla Nasriddin” jurnali o’z maqolalarida G’arb va Sharq taraqqiyoti o’rtasidagi keskin tafovutlarni ham ko’rsatib, mahalliy jamiyatni o’zgarishga undaydi. Masalan, jurnalda chop etilgan “Yaponlar va biz” nomli maqolada ta’kidlanishicha: “Vyashka” gazetasi 11-noyabr kuni sonida yozadiki, Yaponiyada paravozni ta’mirlash 6 kun davom etsa, bizda xuddi shu paravozni ta’mirlash 30 kundan 60 kungacha davom etadi...” (Mulla Nasriddin, 1929, 2-bet). Bu taqqoslash orqali ijtimoiy-siyosiy tizimning sustligi va iqtisodiy ortda qolishning sabablari tanqidiy tarzda ochib berilgan.

Boshqa bir maqolada esa Amerikada yaratilayotgan ixtirolar va texnologik yutuqlar ta’riflanib, mahalliy sharoit bilan taqqoslangan: “Amerikada kimdir mashina ixtiro qilgani, unga ma’lum bir buyruq berilsa, mashina o’z ishini juda yaxshi bajaradi, – deb yozishadi. U telefonda gaplashadi va nima desangiz, uni bajaradi. Albatta, bu ixtirodan hayratga tushganlar ko’p. Lekin men bu ixtirodan umuman hayratda emasman. Chunki qulog’im ostida, burnim ostida shunday ixtirolar borki, o’zimizning Ozarbayjonda Amerikaning bobosi ham bilmaydi...” (Mulla Nasriddin, 1929, 5-bet). Bu parcha ijtimoiy va siyosiy tanqidning zamonaviylik va mahalliy sharoitdagi tafovutlarga urg’u berishini ko’rsatadi.

Bunday qiyoslashlar zamonaviylikka intilish bilan birga, o’z jamiyatidagi imkoniyatlarni ham tanqidiy baholashga xizmat qilgan. Shu tariqa jurnal modernizm ruhidagi ijtimoiy yangilanish g’oyalarini keng targ’ib etgan.

Abdulla Qodiriyning publitsistik chiqishlarida fikri ochiq, dunyoqarashi keng musulmon adibining o’tkir tafakkuri namoyon bo’ladi. U “Mushtum” jurnalining 1923-yil 3-sonida bosilgan “Tavakkaltu alaloh”ni degan er: na talqon-u na qalqonning g’amin yer” sarlavhali maqolasida Qur’on oyatlari bilan asoslangan toat-ibodatda, ixlos-e’tiqodda, zuhd-u taqvoda riyozat chekib, tavakkul qilish maqomiga ko’tarilgan buyuk ajdodlardan ibrat olmay, o’zining dangasaligini “tavakkul” niqobiga o’rab ko’rsatadigan zamondoshlarini ayovsiz tanqid qiladi. “Kimning og’ziga quloq solsang: “Bo’lsa bo’lar – bo’lmasa g’ovlab ketar”, deya kuyingan adib bilimi chala muallimlar, so’zda polvon-u, mehnatdan qochadigan ishchilar, avlod tarbiyasi o’rnida “Qozonda jiz-biz, o’rinda siz-biz” she’rini shior qilgan millat ayollari, “Millatga ilm kerak, ma’rifat kerak” deya bong urib, ishga kelganda tomoshabin bo’lib turuvchi ziyolilik da’vosida yurganlar, aslida, Vatan va millat tanazzulining bosh sababchilari ekani haqida iztirob bilan yozadi (Jabborov, 2020, 141-bet). Adib ushbu maqolasi orqali tavakkul tushunchasining noto’g’ri talqin qilinishini tanqid qilib, uni dangasalik va loqaydlikka niqob sifatida ishlatadigan zamondoshlarini fosh qiladi. Haqiqiy tavakkul ilm va mehnat bilan uyg’un bo’lishini ta’kidlaydi. Shuningdek, o’z davridagi muallim, ishchi, ziyoli va ayollarning ayrim qatlamlarini millat taraqqiyotiga to’sqinlik qiluvchi illatlarni tarqatgani uchun qattiq tanqid ostiga oladi. Bu bilan u jamiyatning ma’rifat, ilm va fidoyilik asosida yuksalishi lozimligini uqtiradi. Shu jihatdan Qodiriy publitsistikasi jadidchilik harakatining ma’naviy-ma’rifiy maqsadlarini ifoda etuvchi muhim manba hisoblanadi.

Har ikki jurnal tahririyatlari milliy uyg’onishning muhim yo’nalishlaridan biri sifatida teatrni ham e’tibordan chetda qoldirmagan. Xususan, “Mulla Nasriddin” jurnalida shunday deyiladi: “Taraqqiy qilgan xalqlar o’rtasida teatr u qadar taraqqiy etkandurki, har kun bir yangi asar tasnif bo’lub, sahnada qo’yulur. Asarni yozgan muharrirg’a ming so’m va o’n ming so’m lab hadya berib, asarini mushaxxislar sotib olib, sahnada qo’yub foyda qiladurlar... Bizni Turkiston va Buxoroda milliy teatrdan asar yo’q edi. Muharriri ojiz “Padarkush”ni yozdiki, o’tgan fevral oyinda Samarqand, Xo’qand, Buxoro va Toshkand va Qattaqo’rg’on shaharlarida millat naf’i uchun ko’ngullilar sahnada qo’yub, to’rt-besh ming so’mni to’rt-besh kechada jamlab, maktablar foydasiga berdilar...”

(Mulla Nasriddin, 1929, 5-bet). Bu misol milliy teatr madaniy yangilanishning jamiyatda qanday o'rin tutgani, uning ta'lim va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasini ko'rsatadi.

Turkiston ziyolilari xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar. Buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozadi: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni, talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati xayriya" nomli yordam tashkiloti "ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, Orenburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalarga yordam ishlarini boshqarar edi" (Komilova, 2021, 370). Turkiston jadid ziyolilari xalq taraqqiyotini yoshlarga beriladigan zamonaviy ta'lim bilan bog'lashgan. Behbudiy "Oyna" jurnalida to'y va marosimlarga sarflanadigan mablag'larni chet elda ta'lim olishga yo'naltirish zarurligini ta'kidlagan. Bu g'oya millat kelajagi uchun yangi, bilimli avlodni tarbiyalashga qaratilgan edi. Munavvarqori Abdurashidxonov esa "Jamiyati xayriya" orqali yoshlarni xorijdagi ilm maskanlariga yuborib, ularga moddiy yordam ko'rsatgan. Bu tashabbuslar Turkiston jamiyatida ma'rifatparvarlik harakatining kuchayishiga xizmat qildi. Shu tariqa jadid ziyolilari millatni ilm va ma'rifat orqali yuksaltirish g'oyasini amalda ro'yobga chiqarishga intildilar.

Xulosa

XX asr boshlarida O'zbekiston va Ozarbayjonda faoliyat yuritgan "Mushtum" va "Mulla Nasriddin" satirik jurnallari milliy uyg'onish harakatining eng muhim mafkuraviy qurollaridan biri bo'ldi. Ular xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ilm-fan va ma'rifatga yo'naltirish, ayollar huquqlarini himoya qilish hamda modernizm g'oyalarini keng targ'ib qilishda beqiyos rol o'ynadi. Jurnallar o'z sahifalarida diniy xurofot, ijtimoiy adolatsizlik, siyosiy zulm va maishiy illatlarni keskin tanqid qilib, xalq ongida yangicha tafakkur va modernistik qarashlarni shakllantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, Behbudiy va Munavvarqori kabi ziyolilarning tashabbuslari yoshlarni xorijiy ta'lim markazlariga yuborish orqali ma'rifatli avlod tarbiyasiga yo'naltirildi. Demak, satirik nashrlar o'z davrida nafaqat adabiy hodisa, balki ijtimoiy islohot va milliy taraqqiyotning asosiy targ'ibotchisi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, B. *Jadidlar. Abdulla Qodiriy*. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.2022.
2. Komilova, H. *Jadidlar faoliyatida ma'rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari. CyberLeninka*.2021.
3. Jabborov, N. *Islom ensiklopediyasi*. Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyoti. 2020.
4. Mulla Nasriddin. Qizlarimiz bilimli bo'lsa... *Mulla Nasriddin*, 20 (son).
5. Mulla Nasriddin. 12 yoshida. *Mulla Nasriddin*, 28 (son).
6. Mulla Nasriddin. Amerikada ixtiro qilingan mashina haqida. *Mulla Nasriddin*, 37 (son).1929.
7. Mulla Nasriddin. *Mulla Nasriddin*, 28 (son).1929.
8. Mushtum. Yeng uchidagi savod. *Mushtum*, 18 (son).1931.